

## MILET MAKTABI VA UNING ILM TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

**Abdullajonova Nasiba Sharifjon qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti sotsiologiya yo'nalishi talabasi  
abdullajonovanasiba007@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Usmonli imperiyasi davrida shakllangan millet maktablari tizimining mohiyati, uning ijtimoiy-falsafiy asoslari hamda ilm-fan taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Milet maktablari diniy-jamoaviy ta'lim modeli sifatida savodxonlikni oshirish, ilmiy merosni saqlash va mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Maqolada mazkur ta'lim tizimining afzalliklari, cheklovlari va zamonaviy ta'lim bilan bog'liqligi yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Milet tizimi, Usmonli imperiyasi, Milet maktabi, Pifagor, Geraklit afsonalari, Levkipp, Demokrit, Sofistlar.*

### KIRISH

XIX – XX asrlar chegarasida musulmon jamiyatlarida yuzaga kelgan ijtimoiy – madaniy o'zgarishlar ta'lim tizimida ham tub burilishlarni talab etadi. Ana shunday sharoitda shakllangan Milet maktablari milliy ongini uyg'otish, savodxonlikni oshirish va ilm-fan taraqqiyotini jadallashtirishda muhim institut sifatida namoyon bo'ldi.

Milet maktablarining vujudga kelish omillari hamda ilm taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida millet maktablari nafaqat diniy ta'lim muassasalari, balki o'z davrida savodxonlikni oshirish, ilmiy tafakkurni rivojlantirish va madaniy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan muhim ijtimoiy institut bo'lganligi asoslab beriladi. Maqolada mazkur ta'lim tizimining afzalliklari, cheklovlari va zamonaviy ta'lim bilan bog'liqligi yoritiladi.

Milet maktabining asoschisi Fales fikricha tabiat hodisalari asosida suv yotadi. Anaksimandr dunyoning asosida suv emas, cheksiz formaga ega bo'lgan apeyron yotadi, deb tushuntirdi. Uning fikricha, hamma narsa shu apeyrondan kelib chiqqan, shu apeyronga qaytadi.

Pifagor maktabi matematika bilan qiziqqani uchun tabiat qonuniyatining miqdoriy xususiyatlarini anglashga qaratdi. Geraklit dunyoning asosida olov yotadi, dunyo mana shu olovning qonuniy alanglanib va so'nib turishdan iborat deydi.

Hujjatlar tahlili. Eramizdan oldingi VI-asrda Yunonistonda ham ta'lim tarixi, ilm-fan taraqqiyoti, diniy ta'lim, Usmonli quldorlik tuzumi, ancha rivojlangan edi. Yunonistonning Milet, Efis, Fokiya degan shaharlarida hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlandi. Natijada, Osiyo, Afrika, Misr bilan bo'lgan madaniy va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi greklar madaniyatiga ta'sir etdi [1]. Milet materialistik maktabining asoschisi Fales eramizdan oldin 624-547 yilda yashagan. Fales geometriya, astronomiya, matematika fanlarini rivojlantirdi. Bu davrda falsafa fani inson

bilimlarining yig'indisini ifoda qilardi. Gresiya falsafasi tarixida Fales birinchi bo'lib, tabiatdagi hodisalarning manbaini qidirdi.

Fales fikricha, tabiat hodisalari asosida suv yotadi. Undan tashqari Fales shogirdi Anaksimandr eramizgacha 610-546 yillarda yashagan. Dunyoning asosida suv emas, cheksiz formaga ega bo'lgan apeyron yotadi, deb tushuntirdi [2]. Uning fikricha, hamma narsa shu apeyrondan kelib chiqqan, shu apeyronga qaytadi. Apeyron harakati esa qarama qarshilikning kelib chiqishi asosida bo'ladi. Mavjudot Anaksimandr fikricha, rivojlanish, taraqqiyot xudolarga bog'liq emas. Anaksimandr birinchi bo'lib, odamning paydo bo'lish masalasiga qiziqadi va uni balchiqlardan paydo bo'lgan deydi. U birinchi bo'lib, geografik karta tuzdi, quyosh soatini yasagan. Milet maktabining undan keyingi vakili Aneksimen eramizdan 585-525 Anaksimening fikricha, dunyo havodan tashkil topgandir. Anaksimend materializmida ateistik qarashlar bor edi. Kosmik o'zgarish xudosiz, moddiyning doimiy o'zgarishi natijasida hosil bo'ladi [3]. Milet maktabi vakillarining ta'limoti materialistik xarakterga egadir. Ularning ta'limoticha dunyoni asosida moddiy bir narsa-modda yotadi. Ular tabiatning qonuniy rivojlanishini modda va uning xarakteriga bog'laydilar. Grek dialektikasini pifagor maktabi rad etdi. Milet faylasuflari dunyoning asosiga materiyani qo'ysalar, pifagor maktabi esa sezish mumkin bo'lmagan abstrakt raqamni- sonni qo'yadi. Bu idealistik falsafa stixiyali materializmga qarshi chiqdi. Bunga sabab, jarayonning qiyinchiliklari natijasi edi.

Pifagor, eramizdan oldin (580-550) yashagan. Pifagor maktabi matematika bilan qiziqqani uchun tabiat qonuniyatining miqdoriy xususiyatlarini anglashga qaratdi. Bu maktab g'oyalari idealistik - diniy falsafiy qarash bilan ilmiy tafakkur elementlari uchraydi. Pifagorchilar o'zlarining ta'limotlarida dunyoqarash sohasi bilan miqdor kategoriyasini kiritdilar. Afina faylasuflari materiyaning ichki tuzilishi, moddiy elementlar xarakterini, uning rivojlanish sabablarini tushuntirishga uringanlar. Bu faylasuflar Levkip, Demokritdir [4]. Levkip (500-440) birinchi bo'lib ateistik qarashni olg'a surdi. Dunyo uning fikricha, mayda bo'lmaydigan moddiy element atomlaridan tuzilgan atmos-bo'linmaydigan, grekcha so'z. U dunyodagi narsalarning paydo bo'lishi va yo'qolishini zaruriyat va sababiyat bilan bog'laydi. Efess shahrida (475-374) Geraklit yashab o'tgan. Geraklit dunyoning asosida olov yotadi, dunyo mana shu olovning qonuniy alanglanib va so'nib turishdan iborat deydi. Geraklit hech qanday xudo ham, odam ham dunyoni yaratmagan, dunyo o'z-o'zidan qonuniyat bilan so'nadi, tirik bo'lgan olovdan iboratdir, deydi. Geraklitning materialistik ta'limoti ham stixiyali xarakterga ega, farazlardan iborat edi. Chunki o'sha davrda dialektika va materializmni fan darajasiga ko'tarishga imkoniyat yo'q edi.

Qadimgi Yunonistonda turli oqimlar paydo bo'lib, ulardan biri sofistlardir. Sofistlar (donishmandlar) qadimgi grek falsafasida muhim o'rinni egallaganlar. Avvalgi grek faylasuflari barcha o'zgarishlardagi rang-baranglikdagi birlik haqidagi masala bilan mashg'ul bo'lganlar. Ular urf-odatlarining turlichaliligini, ahloqiy, siyosiy, huquqiy jarayonlarning falsafiy jihatlarini asoslashga urindilar. Ammo, muhim bir fikrga

kelaolmaganlar. Grek faylasuflarining ba'zilari bitta universal umumiy axloq va bitta siyosiy ideallik mavjud deb tushuntirsalar, ba'zilari bu holatlarni jamiyat yoki yagona bir odam dunyoga keltirgan deb fikr bildirganlar. Qisqasi har bir faylasuf o'zgacha olamdagi predmet va hodisalarni tahlil qilganlar. Keyinchalik, jamiyatdagi axloqiy huquqiy sohalar bilan bog'liq jihatlarni hal etilishi alohida kishi faoliyati bilan bog'liq degan to'xtamga kelganlar. Aslida axloq, huquq, did, huzur-halovat, siyosiy, boshqaruv kabi jarayonlar haqidagi fikrlar xilma-xildir. Tahlili ham turlichadir. Shunday bo'lishidan qat'iy nazar faylasuflar bu savollarga javob topishga intilganlar. Bunday kishilarni-faylasuflarni sofistlar deb yuritganlar. Sofistlar ko'proq axloqiy, siyosiy, huquqiy sohalar bilan shug'ullanishgan. Sofistlarga zamonaviy jihatdan yondoshadigan bo'lsak, ular bir vaqtning o'zida muallif, jurnalist, yozuvchi, shoir umuman ziyoli kishilar bo'lganlar. Ular ko'proq bahslashishni olg'a surib haqiqatga erishmoqchi bo'lganlar.

Sofistlar predmet va hodisalarni aqliy (ratsional) dalillash san'atidan foydalanib asoslashga harakat qilganlar. Sofistlar munozara va muzokarada foydalanish mumkin bo'lgan ayyorlik va mug'ombirlik, makkorlik usullaridan foydalanib borliqni tushuntirganlar. Shu holatga boshqalarni ham yetaklaganlar. Ularning yirik vakillari: Gorgiy, Fraximax va Protogorlardir. Gorgiy taxminan miloddan avvalgi 483-374 yillarda yashagan va mashhur notiq bo'lgan. Uning "Tabiat to'g'risidagi yoki mavjud bo'lmagan narsa to'g'risida" asari bo'lgan. Fraximax Sokrat zamondoshidir. Miloddan oldingi 470 yillar atrofida tug'ilgan, deb taxminan qilinadi. Fraximax o'zining huquq va adolat to'g'risidagi qarashlari bilan barchani lol qoldirgan. Huquq – zo'rlarga xizmat qiladigan narsadir. Huquq - bu kuch qudratdir. Bunday tushunchaga zid keladigan fikr ahmoqqona go'llikning o'zi xolos, ta'kidlagan u [6]. Protogor miloddan avvalgi 481-411 yillarda yashab ijod qilgan. Protogorning asarlaridan saqlanganlaridan "Protogor" deb ataladi. Uning fikrlaridan biri "Inson qanday bo'lsa shu holida mavjud bo'lgan jamiki narsalarning va yo'qligi bilan ma'lum mavjud narsalarning mezoni hisoblanadi." Yana quyidagi fikrni bildiradi: "Xudolar to'risida men ularning na mavjudligi, na mavjud emasligi yoki ularning qanday tusda ekanligi haqidagi bilimga ega bo'la olmayman chunki ko'p narsa: idrok etilmaslik va inson hayotining qisqaligi buni bilishga to'sqinlik qiladi".

Sofistlar etika, ijtimoiy fanlar va epistamologiya bilan aloqador bo'lgan sohalarini baholashda ilg'or bo'lganlar. Bunday fikrlar hozirgi davrda ham dolzarbdir. Chunki bu sohalar muammoli sohalaridir. Ularning fikrlarida nisbiylik va mutloqlik, huquq va hokimiyat, altruizm; individ va jamiyat; aql-idrok va his-tuyg'ular kabi atamalar bo'lganki, bular haqida hozirgi faylasuflar ham fikr yuritadilar.

Muhokama. Milet maktabining ilm-fan taraqqiyotidagi o'rni chuqur tahlil qilinganda, ushbu maktab inson tafakkurini mifologik fikrlashdan ratsional va ilmiy tafakkurga o'tishida muhim bo'g'in vazifasini bajargani ayon bo'ladi. Miletlik mutafakkirlar tabiatni tushuntirishda afsonaviy talqinlardan ongli ravishda voz kechib, bilishning asosiy manbai sifatida aql, mantiqiy mushohada va empirik kuzatuvni ilgari

surdilar. Bu yondashuv ilm-fan tarixida metodologik burilish sifatida baholanadi. Fales tomonidan ilgari surilgan borliqning ibtidosi suv ekanligi haqidagi g'oya ilmiy tafakkur nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur qarash tabiat hodisalarini ilohiy iroda bilan emas, balki moddiy asos orqali izohlash mumkinligini ko'rsatdi. Falesning yondashuvi ilmiy monizm g'oyasining shakllanishiga asos bo'lib, keyingi presokratik tafakkur rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Anaksimandr Milet maktabi doirasida ilmiy fikrni yanada abstrakt darajaga olib chiqdi. Uning "apeiron" haqidagi ta'limoti borliqning ibtidosini aniq bir modda bilan cheklaymasdan, cheksiz va abadiy manba sifatida talqin qilishga asoslandi [7]. Bu qarash tabiat hodisalarining doimiy o'zgarish va rivojlanishda ekanini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qildi. Anaksimandrning kosmologik qarashlari Yerning fazodagi muvozanatli holati va osmon jismlarining qonuniy harakati haqidagi ilmiy tasavvurlar shakllanishiga muhim hissa qo'shdi.

Anaksimender esa ilmiy tushuntirishlarni empirik kuzatuvlar bilan mustahkamlashga intildi. Uning havoni asosiy unsur sifatida talqin qilishi hamda moddalarning siyraklashish va zichlashish jarayonlari orqali yuzaga kelishi haqidagi qarashlari sabab-oqibat mexanizmlarini tushuntirishga qaratilgan dastlabki ilmiy model sifatida e'tirof etiladi. Bu yondashuv ilmiy tafakkurda miqdoriy va sifat o'zgarishlar o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni tushunishga zamin yaratdi. Milet maktabining ilmiy ahamiyati uning metodologik yondashuvida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu maktab vakillari ilmiy bilishni izchil va tizimli jarayon sifatida talqin qilib, kuzatuv, tahlil va umumlashtirishni asosiy bilish vositalari sifatida qo'lladilar. Natijada ilm-fan subyektiv e'tiqodlar majmuasidan obyektiv va tekshiriladigan bilim sohasi darajasiga ko'tarildi. Shuningdek, Milet maktabi ilmiy tafakkurda tanqidiy fikrlash madaniyatining shakllanishiga xizmat qildi [8]. Har bir yangi nazariya avvalgi qarashlarni qayta ko'rib chiqish va rivojlantirish asosida yuzaga kelgani ilmiy bilimning tarixiy va dinamik xususiyatini namoyon etdi. Bu holat ilm-fanning uzluksiz taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholanadi.

Natija. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Milet maktabi ilm-fan taraqqiyotida metodologik va nazariy jihatdan tub burilish yasagan maktab hisoblanadi. Ushbu maktab doirasida ishlab chiqilgan qarashlar natijasida ilmiy bilish jarayoni mifologik talqinlardan ajralib, ratsional va empirik asosga ega bo'lgan tizim sifatida shakllandi. Aniqlanishicha, Milet maktabi ilmiy metodning asosiy tarkibiy elementlari — kuzatuv, sabab-oqibatli tahlil va nazariy umumlashtirishni amaliyotga joriy etdi. Bu jarayon ilm-fanning mustaqil bilim sohasi sifatida qaror topishiga imkon yaratdi. Natijada ilmiy bilim jamiyat taraqqiyotining muhim intellektual omiliga aylandi. Bundan tashqari, Milet maktabi tomonidan shakllantirilgan ratsional yondashuv tabiiy fanlar bilan bir qatorda ijtimoiy va falsafiy tafakkur rivojiga ham ta'sir ko'rsatdi. Tabiat qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan yondashuv jamiyat hodisalarini ham ilmiy asosda tahlil qilish imkoniyatini kengaytirdi.

Xulosa. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Milet maktabi insoniyat ilmiy tafakkuri tarixida fundamental ahamiyatga ega bo'lgan maktablardan biridir. Ushbu maktab vakillari tomonidan asos solingan ratsional yondashuv ilm-fan rivojida yangi bosqichni boshlab berdi va ilmiy metod shakllanishiga mustahkam zamin yaratdi. Milet maktabining tarixiy ahamiyati uning ilmiy tafakkurda metodologik izchillik, tanqidiy tahlil va nazariy umumlashtirish tamoyillarini qaror toptirganidadir. Ushbu ilmiy an'ana keyingi presokratik faylasuflar, antik falsafa vakillari hamda Yevropa ilmiy tafakkuri rivojiga uzluksiz ta'sir ko'rsatdi. Shu bois Milet maktabi nafaqat qadimgi yunon falsafasining muhim bosqichi, balki zamonaviy ilm-fanning shakllanishida muhim g'oyaviy manbalardan biri sifatida baholanadi. Uning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bugungi ilmiy dunyoqarash va metodologik yondashuvlarda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aristotle. *Metaphysics*. Oxford: Clarendon Press, 1924. — pp. 424.
2. Aristotle. *Physics*. Oxford: Oxford University Press, 1936. — pp. 320.
3. Barnes, J. *Early Greek Philosophy*. London: Penguin Books, 1987. — pp. 416.
4. Burnet, J. *Early Greek Philosophy*. London: A & C Black, 1908. — pp. 384.
5. Guthrie, W. K. C. *A History of Greek Philosophy*. Cambridge: Cambridge University Press, 1962. — pp. 560.
6. Kirk, G. S.; Raven, J. E.; Schofield, M. *The Presocratic Philosophers*. Cambridge: Cambridge University Press, 1983. — pp. 704.
7. McKirahan, R. *Philosophy Before Socrates*. Indianapolis: Hackett Publishing, 1994. — pp. 340.
8. Russell, B. *A History of Western Philosophy*. London: Allen & Unwin, 1945. — pp. 916.